



LEKSEMALARNING SEMANTIK ASOSDAGI AYRIM MUNOSABATI XUSUSIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18189522>

Islomov Ikrom Xushboqovich

Renessans ta'lim universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

Iskandjanova F.K

Renessans ta'lim universiteti kafedra v.b.dotsenti

feruza022@mail.ru

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada leksik-semantik munosabatlar, xususan, giponimiya va partonimiya xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi leksik birliklarning giponimik, partonimik munosabatlari appelyativ birliklar misolida tahlil qilingan. Leksemalarning semantik strukturasidagi semema va semalarning leksik-semantik munosabat hosil qilishdagi o'rni, vazifasi yuzasidan fikr-mulohazalar yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR: leksema, semema, leksik-semantik munosabat, giponimiya, partonimiya, giponim, giperonim, partonim, totonim.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются лексико-семантические отношения, в частности, гипонимия и партонимия. Также анализируются гипонимические, партонимические отношения лексических единиц узбекского языка на примере апеллятивных единиц. Рассматриваются роль и функция семем в семантической структуре лексем и сем в формировании лексико-семантических отношений.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: лексема, семема, лексико-семантические отношения, гипонимия, партонимия, гипоним, гипероним, партоним, тотоним.

O'zbek tili yer sathi ko'rinishlarini ifodalovchi atov birliklar tizimida giponimiya. O'zbek tili leksik sistemasida "yer sathi ko'rinishi" arxisemasi asosida birlashgan leksik-semantik guruh alohida o'rin tutadi. Mazkur arxisema ostida birlashgan sistema birliklari o'z ichida ma'lum farqlovchi belgilari vositasida kichik guruhlar hosil qiladi. Kichik guruhlar bilan katta guruh o'rtasida

sistemaviylikni, izchillikni ta'minlovchi iyerarxonimik (pog'onaviy) munosabat uchun asos bo'luvchi giponimik (jins-tur) munosabat asosiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tili leksik sistemasining alohida lug'aviy-ma'noviy guruhini tashkil qiluvchi yer relyefini ifodalovchi atov birliklari tizimi ham mavjud bo'lib, u o'z tarkibiga *adir, dovon, dara, jar, tepa, soy, chuqur, yalanglik, tog', qir, sayhon, cho'l, o'yi, tekislik, balandlik,*



pastlik, *tuz* kabilarni qamrab olgan. Mazkur tizimga mansub leksemalarning barchasi “yer sathi ko‘rinishi” umumiy belgisi – arxisemasiga ega sanaladi. Bitta umumiy birlashtiruvchi semaga ega bo‘lgan bu birliklarning semantik tarkibini kuzatgan holda xususiyliklardagi umumiyliklariga, o‘xshash belgilariga ko‘ra to‘plangan leksemalarni lisoniy tasniflash asosida guruhlarga ajratamiz. Dastlab “balandlik” belgili leksemalarni bir guruhga, “tekislik” arxisemasiga ega birliklarni, so‘ngra esa “pastlik” belgisi mavjud lug‘aviy birliklarni alohida-alohida guruhga joylashtirib chiqamiz:

1. “Balandlik” semasiga ega leksemalar: *tepa*, *dovon*, *tog‘*, *cho‘qqi*, *balandlik*, *adir*, *qir*, *do‘nglik*...;

2. “Tekislik” semasiga ega leksemalar: *yalanglik*, *sahro*, *tekislik*, *sayhon*, *tuz*, *dala*, *maydon*, *cho‘l*...;

3. “Pastlik” semasiga ega leksemalar: *soy*, *jar*, *chuqur*, *o‘yiq*, *pastlik*, *chuqurcha*, *jarlik*...

Demak, ushbu leksik-semantik guruhga birlashuvchi leksemalar tasnifning dastlabki bosqichida uch katta guruhga ajraladi: 1-guruh leksemalari yer yuzasining balandlik ko‘rinishlarini; 2-guruh a‘zolari yer yuzasining tekislik ko‘rinish, shakllarini; 3-guruh birliklari esa yer yuzasidan past bo‘lgan ko‘rinishlarini anglatuvchi denotat bilan bog‘lanib, har bir guruhga mansub birliklar o‘zining lisoniy qiymati va tavsifiga ega bo‘ladi.

Diqqatimizni har bir guruh bilan guruh a‘zolarining, shuningdek, guruh a‘zolarining o‘zaro ichki munosabatiga

qaratamiz. 1-guruh leksemalarining semantik tarkibida “yer sathidan baland, yuqori” semasi integral belgi sifatida ishtirok etib, ushbu guruhning *balandlik* leksemasi atrofida birlashishiga asos sifatida xizmat qilmoqda. Ko‘rinadiki, guruh a‘zolarining ma‘naviy qiymati *balandlik* leksemasi ma‘nosi asosida oydinlashmoqda. Demak, 1-guruh a‘zolari *balandlik* leksemasi bilan jins-tur (gipero-giponimik) munosabatida bo‘ladi. *Jinsnom* (giperonim) mavqeyini *balandlik* egallasa, qolgan a‘zolar uning *turnom* (giponim)lari mavqeyida bo‘ladi. *Balandlik* 1-guruh leksemalarining tizimi markazi (yadrosi) bilan uzviy aloqasini ta‘minlaydi, ya‘ni halqa vazifasini o‘taydi. Kuzatuvdagi qolgan 2- va 3-guruhlar tabiati va tarkibiy munosabati haqida ham xuddi shunday fikrni bildirish mumkin.

Uchala guruhning giperonimi bo‘lgan *balandlik*, *tekislik*, *pastlik* leksemalari sistema markaziga o‘z guruhini bog‘lab turuvchi halqagina bo‘lib qolmay, *yer sathi ko‘rinishiga* nisbatan giponim. Demak, *yer sathi ko‘rinishi* atov birligi bilan *tekislik*, *balandlik* va *pastlik* leksemasi o‘zaro giponimik munosabatda ekanligi ham ma‘lum bo‘ladi.

Tilshunoslikda ta‘kidlanganidek, giper-giponimik munosabat semantik maydon, guruh uzvlari o‘rtasidagi munosabatdan biri va asosiy mavqe egallovchi munosabat turi. “Dastlab, botanik va biolog olimlar tomonidan o‘simlik va hayvon sistemikasiga kiritilgan jins-tur munosabati keyinchalik



til birliklari sistemasiga ham tatbiq etila boshladi”⁵. Tilshunoslik sohasida mazkur munosabat yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan bo’lsa-da,⁶ u bilan bog’liq ayrim lingvistik masalalar ham yechimini kutmoqda. Mazkur munosabat leksik sathdagi semantik maydonining asosini tashkil qilishi bilan xarakterlanishi yuqorida ham aytib o’tildi. Shuningdek, alohida birliklarni qatorga, qatorlarni uyaga, uyalarni guruhga, guruhlarni semantik maydonga birlashtirishda tur-jins munosabati asosiy mavqe egallaydi.

Semantik munosabat bilan bog’liq fikrlarni relyef nomlari tizimiga kiruvchi leksemalar tahlili yuzasidan davom ettiramiz. Giperonim leksema maqomidagi *balandlik* o’z atrofiga “yer sathidan yuqori, baland” belgisiga ega bir qancha birliklarni jamlaydi, xususan: *tepa*, *adir*, *tog’*, *do’ng*, *qir* kabilarni. Bu guruh a’zolari ma’lum ma’noda *balandlik* giperonimiga nisbatan tobe munosabatda bo’lishi bilan birga, o’zaro teng qiymatli ziddiyatli munosabatdagi giponim qatorini ham tashkil qiladi. Guruhdagi giperonim leksema yana shunisi bilan xarakterliki, u sistema ichidagi sistema tamoyiliga asosan sistemaga

maydonlarni, maydonga guruhlarni, guruhga uyalarni, uyaga qatorlarni sistematik tarzda bog’lovchi vosita – halqa vazifasini ham bajarib kelmoqda. *Yer sathi ko’rinishi* bu sistemani o’zidan kattaroq *predmetlar* sistemasiga birlashuvini ta’minlayotgan halqa bo’lsa, *balandlik*, *tekislik*, *pastlik* leksemalari – o’z guruhlarini mazkur sistema bilan aloqadorligini ta’minlovchi alohida halqalar.

Giponimlar sirasida ishtirok etayotgan *tog’* leksemasi esa, o’z navbatida, *olatog’*, *yonartog’*, *yetimtog’*, *qoratog’* kabi birliklarning giperonimi sifatida mazkur mikroguruhni o’zidan kattaroq guruh bilan bog’lab turuvchi vosita hamdir.

Ma’lum bo’ladiki, leksemalararo giperonim-giponimlik nisbiylik xarakteriga ega. Chunki *tog’*, *balandlik*ka nisbatan giponim, *olatog’*, *yetimtog’*, *yonartog’* kabilarga nisbatan esa giperonim mavqeyida kela olyapti. Bu esa ayni bir leksema ham giperonim, ham giponimlik belgisini o’zida mujassam etgan bo’lishi mikrosistemacha ekanligidan dalolat. Biroq bunday holat o’sha leksemaning qaysi sistema, qaysi leksema bilan qaysi belgisiga ko’ra munosabatga kirishayotganligiga bog’liq ravishda hal etilishi lozim. Shuningdek, giperonim leksemaning birlashtiruvchi semasi boshqa bir holatda farqlovchi sema vazifasini bajarishi masalasi ham ayni shu o’rinda oydinlashadi. Yuqorida keltirilgan *tog’* leksemasi sememasidagi “boshqa *balandlik*ka nisbatan yuqori” semasi *yonartog’*, *olatog’*, *yetimtog’*ni

⁵Соби́ров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 136 б.

⁶Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – М.: Высш. шк., 1988. – С. 75-87; Сафарова Р.Г. Гипонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных зоонимов): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990.



birlashtiruvchi sema bo'lsa, *adir*, *qir*, *tepa* leksemalariga nisbatan farqlovchi belgi. Shuningdek, *balandlik*ning "umuman yer sathidan yuqori" belgisi guruhi ichidagi a'zolarini birlashtiruvchi asos ma'no bo'lsa, ayni paytda o'zidan yuqori sistemaga nisbatan bu farqli belgi maqomida bo'ladi.

Giperonimda giponimlar tarkibida takrorlanuvchi ma'no mavjud⁷. Bundan ma'lum bo'ladiki, giperonim *balandlik*ning ma'no hajmi, ishlatilish ko'lamini keng, aksincha, uning giponimlari ma'nosi tor va yorqin. Bunday holatni umuman barcha giperonim-giponimik munosabatdagi leksemaga nisbatan ham aytish mumkin. *Tekislik* deganda ko'plab leksemani esga olamiz, biroq *yalanglik* leksemasini tilga olsak, yer sathining aniq bir tekislik ko'rinishini tasavvur etamiz, ya'ni dovdaraxtsiz, keng ochiq maydon ko'rinishi ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'ladi. Yoki *pastlik* leksemasi umuman sathdan pastda joylashgan bir qator ko'rinishni ham ifodalab keladi. *Chuqur* leksemasi esa aniq denotatga ega past joyni anglatadi va hokazo.

Leksik sathda, aytib o'tilganidek, nafaqat giperonim bilan giponim o'rtasida, balki giponimlararo ham o'zaro munosabat mavjud. Masalan, yuqorida keltirilgan *balandlik* guruhiga mansub *tog'*, *cho'qqi*, *tepa*, *adir*, *qir*, *do'ng* kabi

leksemalar bir-biriga nisbatan o'zaro paradigmatic munosabatda, o'zaro teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyat hosil qilgan holda barqarorlik kasb etadi.

Xullas, *adir* leksemasi o'zidan yuqori bosqichdagi *balandlik* bilan privativ ziddiyatli munosabatda bo'lishi bilan birga, o'z paradigmatic qatorida *cho'qqi*, *qir*, *tepa*, *tog'* kabi leksemaning barchasi bilan o'zaro teng qiymatli ziddiyat hosil qilgan holda "yashaydi". Bunda *adir* "o'rtacha balandlik" belgisi bilan, *tog'* esa "barcha balandlikdan yuqori" semasi asosida, *cho'qqi* "eng baland" semasi asosida ishtirok etadi.

O'zbek tili yer sathi ko'rinishlarini ifodalovchi atov birliklari tizimida partonimiya. Leksemalararo ma'noviy munosabatning alohida bir turi partonimiya, u o'ziga xos xususiyatga ega. Partonimik munosabatning leksemalararo mavjudlik va amal qilishlik masalasi ham tilshunoslarimiz tomonidan kun tartibiga qo'yilgan, yechimlari taklif etilgan⁸.

Leksemalararo butun-qism munosabati asosida borliqdagi narsa-buyum, predmetlar butunligi va ularning tarkibiy qismlari, bo'laklari munosabati tashkil etadi. Tarkibiy murakkablik, bo'laklarga ajraluvchanlik borliq elementlarining umumiy qurilish qonuniyati, bu qonuniyat ong orqali lisonda o'z aksini ko'rsatib turishi tabiiy.

⁷ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.140.

⁸ Бегматов Э., Неъматов Х., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (систем лексикология тезислари) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. – № 6. – Б. 35-40; Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1997.



Butun-bo‘lak munosabati ham giperonim-giponim kabi nisbiy, butun shu butunning bo‘laklariga, bu bo‘lak butun sifatida boshqa bo‘laklarga bo‘linib ketaveradi.

Leksik sistema tarkibida uzvlararo butun-bo‘lak munosabati ham qayd etilgani holda turlicha atab kelinmoqda. Umuman, butun nomga nisbatan totonim, qism, bo‘lak nomga esa partonim atamasini qo‘llash an‘ana tarzini olmoqda. Hodisaning qanday nomlanishi, albatta, uning mohiyatiga ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Leksik semantik munosabat maqomida qaralayotgan mazkur munosabat turi relyef nomlari sistemasi uzvlariaro qanday mavqe egallaydi? Bu savolga javob izlashdan oldin partonimik munosabat xususida biroz to‘xtalish lozim.

“Partonimik munosabatli semantik guruhning ham o‘ziga xos xususiyati mavjud: 1) partonimlar ham o‘ziga xos paradigma; 2) partonimik guruhda dominanta leksema mavjud, u partonimlarni o‘z atrofiga birlashtiradi. Yuqori butunlikka esa uning o‘zi mansub bo‘la oladi; 3) partonimik guruh ham har doim ochiqdir. Bu ochiqlik quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, partonimik lug‘aviy paradigmadagi istalgan leksema o‘zining sinonimik, graduonimik, giponimik qatorlariga ega bo‘lishi mumkin va nutq sharoitiga ko‘ra o‘zi mansub LMG tarkibiga sinonim, giponim, graduonimlarini olib kiradi. Ikkinchidan, butunning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi-yangi qismlari ochilib va

nomlanib boradi. Uchinchidan, paradigmadagi leksemalar miqdori, ularning shakli nisbiy erkinlikka ega”⁹. Eng muhimi – totonim bilan partonim orasida semik bog‘lanishning mavjudligi.

Partonimik munosabat masalasi yuzasidan tadqiqotchi A.Sobirov quyidagicha munosabat bildiradi: “til real borliqning o‘ziga xos in‘ikosi ekanligini hisobga olgan holda xolo-meronimik munosabatning ikki turini ajratish mumkin:

a) tabiiy holdagi butun-bo‘lak munosabati: *osmon* – *quyosh*, *oy*, *yulduzlar*; *tog‘* – *jar*, *ungur*, *g‘or*, *cho‘qqi*, *so‘qmoq*, *jilg‘a*; *bir* – *yarim*, *chorak*, *nimchorak*;

b) sun‘iy tarzda hosil qilingan butun-bo‘lak munosabati. Bunga inson tomonidan yaratilgan barcha qurilmalar misol bo‘la oladi. Masalan, *mashina* xolonimi *radiator*, *g‘ildirak*, *rul*, *ressor*, *akkumlyator*, *motor*, *svecha*, *pompa*, *eshik*, *salon*, *fara*, *nomer* kabi yuzlab meronimlardan tashkil topadi”¹⁰.

Yuqorida keltirilgan misoldagi *tog‘* va uning qismini ifodalovchi leksik birlik bilan uning denotati o‘rtasida dialektik birlik kategoriyasi mavjud, tabiiy holdagi butun-bo‘lak munosabati relyef nomlari sistemasida o‘z aksini ko‘rsatgan.

Partonimik munosabatli mazkur paradigmani *qoya*, *terrasa*, *kamar*,

⁹Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Қарши, 2005. – Б. 128.

¹⁰Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 144.



yonbag'ir, etak, kungay kabi leksema bilan yanada boyitish mumkin. Chunki mazkur lug'aviy birliklar moddiy asosga ega denotat va uning qismlari, bo'lagi ifodalovchisi sifatida paradigma tarkibiga bevosita kirishga haqli. Albatta, bunday paradigmmani tuzish asosi leksemalarning moddiy borliqdagi denotat va ular o'rtasidagi munosabat bilan zich bog'langanligi. Keltirilgan paradigmadagi *tog'* – totonim (xolonim), boshqa leksemalar esa butunning qismlari partonim (meronim). Paradigmadagi partonimlar qism, bo'lak mavqeyida bo'lganligi tufayli ham "balandlik semantik mikrogoruhi"ga to'g'ridan-to'g'ri bog'lana olmaydi, faqat butunnom orqaligina ushbu tizimga daxldor bo'ladi.

Demak, partonimik munosabat asosida ham dominantlik muhim vazifani ado etadi. Relyef nomlari tizimi leksemalari o'rtasida mazkur munosabat keng amal qilmaydi. Partonimik munosabatli paradigmalar sifatida *jar – yoqa, tub; yer yuzasi – tog', tepa, chuqur, jar, vodi, dara; tog' – cho'qqi, g'or, ungur, yonbag'ir, etak, terrasa, dovon* kabi paradigmmani ko'rsatish mumkin. Biroq bunday munosabatli paradigma soni ushbu tizimda kam.

Relyef nomlari leksik tizimiga mansub birliklar o'rtasidagi partonimik munosabat tabiiy holdagi butun-bo'lak munosabatlar sirasiga tegishlilik va aloqadorlik kasb etishi bilan ham ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бегматов Э., Нейматов Х., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (систем лексикология тезислари) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. – № 6. – Б. 35-40.
2. Исканджанова, Ф. К., & Абдуллаева, Д. (2016). Значение педагогического общения в становлении личности профессионала. *Ученый XXI века*, (6-3).
3. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Қарши, 2005. – Б. 128.
4. Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – М.: Высш. шк., 1988. – С. 75-87.
5. Сафарова Р.Г. Гипонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных зоонимов): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990.
6. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.140.
7. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 136 б.
8. Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1997.
9. Iskandjanova, F. K. (2022). The mechanism of methodological improvement of professional and pedagogical competence of future medical teachers. *Central Asian Journal of Medicine*, (1), 5-10.
10. omilova, M. (2019). The Essence and Content of Problem Based Learning.